



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQRISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI

Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, DSc

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi risklarining mohiyati, ularning asosiy xususiyatlari hamda ilmiy tasniflash metodologiyasi keng yoritilgan. Qishloq xo'jaligida yuzaga keladigan risklar tabiiy-iqlim, ishlab chiqarish, bozor, moliyaviy, institutsional va inson omili bilan bog'liq omillar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, risklarning kelib chiqish manbalari, ta'sir darajasi va boshqarish imkoniyatlariga ko'ra guruhlanishi keltirilgan. Maqolada risklarni baholash usullari, ularni kamaytirish va boshqarish instrumentlari, xususan sug'urta, diversifikatsiya va moliyaviy mexanizmlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlash hamda samarali risk boshqaruvi tizimini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi risklari, risklarni tasniflash, risklarni boshqarish, risklarni baholash, sug'urta, diversifikatsiya, moliyaviy risklar, bozor risklari, institutsional risklar, ishlab chiqarish risklari, tabiiy-iqlim risklari, agrar sektor, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the essence of agricultural risks, their main characteristics, and the methodology of their scientific classification. The risks arising in agriculture are examined based on natural-climatic, production, market, financial, institutional, and human factors. The study also presents a classification of risks according to their sources, impact levels, and management possibilities. Furthermore, the importance of risk assessment methods and risk management instruments, including insurance, diversification, and financial mechanisms, is substantiated. The results of the study have significant scientific and practical importance in ensuring the sustainability of agricultural production and in developing an effective risk management system.

Keywords: agricultural risks, risk classification, risk management, risk assessment, insurance, diversification, financial risks, institutional risks, production risks, natural-climatic risks, agricultural sector, sustainable development.

Абстрактный: В данной статье подробно освещены сущность сельскохозяйственных рисков, их основные особенности, а также методология их научной классификации. Риски, возникающие в сельском хозяйстве, проанализированы на основе природно-климатических, производственных, рыночных, финансовых, институциональных факторов и человеческого фактора. Также представлена классификация рисков по источникам возникновения, степени воздействия и возможностям управления. В статье обоснована значимость методов оценки рисков, а также инструментов их снижения и управления, в частности страхования, диверсификации и финансовых механизмов. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для обеспечения устойчивости сельскохозяйственного производства и формирования эффективной системы управления рисками.

Ключевые слова: сельскохозяйственные риски, классификация рисков, управление рисками, оценка рисков, страхование, диверсификация, финансовые риски, рыночные риски, институциональные риски, производственные риски, природно-климатические риски, аграрный сектор, устойчивое развитие.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi globallashev va iqlim o'zgarishlari sharoitida qishloq xo'jaligi sohasi yuqori darajadagi noaniqlik va turli xil risklar ta'siri ostida faoliyat yuritmoqda. Ushbu tarmoqning o'ziga xos jihati shundaki, u tabiiy-iqlim sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlari biologik omillar bilan chambarchas uzviy bog'langan. Shu sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari nafaqat ichki, balki tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan ko'plab xavf-xatarlar bilan muntazam ravishda duch keladilar.

Qishloq xo'jaligida risklar xilma-xil bo'lib, ular tabiiy ofatlar, ob-havo o'zgarishlari, ishlab chiqarish texnologiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, bozor kon'yunkturasi o'zgaruvchanligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda davlat siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Mazkur omillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, sifati va narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ishlab chiqaruvchilarning daromad barqarorligiga putur yetkazadi.

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligi risklarining mohiyatini chuqur o'rganish, ularni ilmiy asosda tasniflash hamda samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Risklarni to'g'ri tasniflash ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash, ta'sir darajasini baholash va ularga nisbatan samarali boshqaruv choralari ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligi risklarining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish, ularni ilmiy jihatdan tasniflash metodologiyasini yoritish hamda risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari qishloq

xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlash, risklarni kamaytirish va agrar sohada samarali boshqaruvi tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Mazkur maqolani tayyorlashdan asosiy maqsad qishloq xo'jaligi risklarining mohiyati va xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni ilmiy asosda tasniflash metodologiyasini ishlab chiqish hamda risklarni samarali boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni asoslab berishdan iborat. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish ham ko'zda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv orqali qishloq xo'jaligi risklari o'zaro bog'liq jarayonlar majmui sifatida o'rganildi. Tahlil va sintez usullari yordamida risklarning asosiy turlari va ularning xususiyatlari aniqlashtirildi. Tasniflash (klassifikatsiya) metodi asosida risklar muayyan mezonlar bo'yicha guruhlariga ajratildi. Shuningdek, statistik va empirik usullar orqali risklarning ehtimollik darajasi hamda ta'sir ko'lamini baholandi. Bundan tashqari, taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilib, tegishli xulosalar shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

Qishloq xo'jaligi risklari va ularni boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, turli ilmiy maktablar tomonidan mazkur yo'nalishda muhim nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab

chiqilgan. Xususan, agrar risklarning mohiyati, ularning kelib chiqish manbalari hamda boshqarish mexanizmlarini o'rganishda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi risklarini tizimli o'rganishda Hardaker va boshqalar (1997) [1] tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv muhim o'rin tutadi. Ular agrar risklarni ishlab chiqarish, bozor, moliyaviy, institutsional va inson omili bilan bog'liq risklarga ajratgan holda, ularni kompleks boshqarish zarurligini asoslab bergan. Ushbu yondashuv hozirgi kunda ham qishloq xo'jaligi risklarini tasniflashda keng qo'llaniladi.

Shuningdek, Boehlje va Trede (1977) [2] qishloq xo'jaligida narx va bozor risklarini chuqur tahlil qilib, talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklar narxlarning keskin o'zgarishiga olib kelishini ta'kidlagan. Ularning fikricha, bozor risklarini kamaytirishda diversifikatsiya va fyuchers bozorlaridan foydalanish muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Fleisher (1990) [3] esa qishloq xo'jaligi risklarini boshqarishda institutsional omillarning rolini alohida e'tirof etib, davlat siyosati, qonunchilik va tartibga solish mexanizmlarining o'zgarishi agrar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan.

Bundan tashqari, Just va Pope (2003) [4] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda risk va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilib, risklarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatib o'tilgan.

Xalqaro tashkilotlar, xususan FAO (2014) [5] hisobotlarida qishloq xo'jaligi risklarini boshqarishda sug'urta, davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari hamda innovatsion moliyaviy instrumentlarning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Ushbu tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab mamlakatlarda agrar sug'urta tizimlari risklarni kamaytirishning samarali vositasi sifatida keng joriy etilgan.

Shuningdek, Jahon banki (2011) [6] tadqiqotlarida indeksli sug'urta mexanizmlarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini tabiiy ofatlar oqibatlaridan himoya qilishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Mazkur yondashuv ayniqsa iqlim o'zgarishlari sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Risk qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim tarkibiy elementi hisoblanib, u ishlab chiqarish hajmi, investitsiya qarorlari hamda fermer xo'jaliklarining daromad barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, risklarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi (Just & Pope, 2003) [7].

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida esa mahalliy agrar tizimning iqlimiy, iqtisodiy va institutsional xususiyatlari hisobga olingan tarzda risklarning o'ziga xos omillari tahlil etilgan. Saidova respublika oziq-ovqat xavfsizligini o'rgangan tadqiqotida iqlim o'zgarishi, narx tebranishlari, tashqi shoklar va normativ-huquqiy muhitning o'zgaruvchanligi asosiy risk omillari sifatida ko'rsatadi [8]. Otabekov, Xalikov va Unaboyev qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash tizimi bilan bog'liq masalalarini o'rganib, risklarni tabiiy, bozor, moliyaviy va institutsional guruhlariga ajratadi hamda agrar sug'urta tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar beradi [9]. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda BMTDning qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash bo'yicha analitik hisobotida Orolbo'yi hududida ekologik omillar, suv tanqisligi, qurg'oqchilik hamda iqlim o'zgarishi oqibatida hosildorlikning tebranishi agrar risklarning muhim manbalari sifatida ko'rsatib o'tiladi [10]. Yuqorida ko'rib o'tilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligidagi risklar murakkab, ko'p omilli va o'zaro bog'langan jarayon bo'lib, ular tabiiy-iqlimiy, bozor, moliyaviy, texnologik, institutsional va boshqaruv omillarining birgalikdagi ta'siri natijasida shakllanadi. Xalqaro tadqiqotlar risklarni tasniflashning nazariy asoslarini yaratgan bo'lsa, MDH va O'zbekiston olimlarining ishlari agrar tizimning hududiy va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda risklarning kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish mexanizmlarini chuqur yoritmoqda. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.


Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi risklarini o'rganishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ilmiy tasniflash, baholash va samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqarish agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты).

Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi risklarining mazmuni, ularning kelib chiqish manbalari hamda iqtisodiy faoliyatga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi

boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori darajadagi noaniqlik bilan tavsiflanadi va bu, avvalo, tabiiy-iqlim sharoitlariga kuchli bog'liqligi bilan izohlanadi. Xususan, qurg'oqchilik, ortiqcha yog'ingarchilik, sovuq urishi kabi omillar hosildorlikning keskin pasayishiga olib kelib, ishlab chiqaruvchilarning daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida qishloq xo'jaligi risklari kelib chiqish manbalariga ko'ra tabiiy-iqlim, ishlab chiqarish, bozor, moliyaviy, institutsional va inson omiliga bog'liq guruhlariga ajratildi. Mazkur tasnif risklarni tizimli o'rganish hamda ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ayniqsa, tabiiy-iqlim va bozor risklari eng yuqori darajada ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, risklarning ta'sir ko'lamini bo'yicha tahlil natijalari ularni tizimli (diversifikatsiyalanmaydigan) va individual (diversifikatsiyalanadigan) risklarga ajratish zarurligini ko'rsatdi. Tizimli risklar keng hududlarni qamrab olib, ko'plab xo'jaliklar faoliyatiga bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi va ularni kamaytirish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Individual risklar esa alohida xo'jalik darajasida yuzaga kelib, ularni boshqarish imkoniyati nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi risklari turlarining guruhlanishi*

*Muallif ishlanmasi

Tadqiqot davomida risklarni baholashda statistik usullardan, xususan standart og'ish va o'zgaruvchanlik koeffitsientidan foydalanish samarali ekanligi asoslab berildi. Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish natijalarining barqarorlik darajasini aniqlash va kutilayotgan yo'qotishlarni baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, risklarni baholashda faqat statistik ko'rsatkichlar emas, balki qaror qabul qiluvchilarning tavakkalchilikka bo'lgan munosabati ham muhim omil ekanligi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida risklarni samarali boshqarish uchun turli instrumentlardan kompleks foydalanish zarur. Jumladan, sug'urta mexanizmlari, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, moliyaviy zahiralarni shakllantirish, vertikal integratsiya va shartnomaviy ishlab chiqarish kabi vositalar risklarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, sug'urta tizimi ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda eng samarali instrumentlardan biri sifatida baholandi.

Qishloq xo'jaligida risklarni boshqarish instrumentlari

Qishloq xo'jaligini yuritishning tarixiy jarayonida fan va amaliyot riskni boshqarishning ko'p sonli turli-tuman usullarini kashf qildi. Bu usullarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. iqtisodiyotning turli subyektlari o'rtasidagi risklar transferi va o'zaro taqsimlash strategiyasi;
2. korxonalar risklarini kamaytirish bo'yicha strategiyalar.
3. Qishloq xo'jaligida risklarni boshqarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, ularning mazmuni va qishloq xo'jaligiga ta'sirini jadval orqali quyidagicha tasvirlandi (1-jadval).

Korxonalar risklarini boshqarish instrumentlari turlicha bo'lib, ular xo'jaliklar tomonidan mustaqil tanlangan holda qo'llanilishi mumkin. Bunda risklar transferi va taqsimoti instrumenti sifatida **ekinlarni sug'urtalash** usulini tanlash har jihatdan qulay hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda riskni kamaytirishning qo'shimcha usuli ishlab chiqarish vositalarini tanlab olish hamda ko'p maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlarni tanlab olishdan iborat. Ishlab chiqarish vositalarining ko'p funksionalligi bu bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishdan boshqasini ishlab chiqarishga o'tish imkoniyatining mavjudligidir. Masalan, sigir boquvchini qisqa fursatda novvos

¹ Just, R. E., & Pope, R. D. (2003). "A Comprehensive Assessment of the Role of Risk in U.S. Agriculture." *Journal of Agricultural Economics*.

boquvchiga aylantirish mumkin.

1-jadval
Qishloq xo'jaligida risklarni boshqarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar*

№	Omil turi	Mazmuni	Qishloq xo'jaligi faoliyatiga ta'siri
1.	Tabiiy-iqlim omillari	Qurg'oqchilik, sovuq, sel, kuchli yog'ingarchilik, ob-havo keskin o'zgarishi	Hosildorlikning kamayishi yoki ekinlarning nobud bo'lishi
2.	Hududiy omillar	Sug'orish tizimining mavjudligi, geografik joylashuv	Risk darajasi hududlar kesimida turlicha shakllanadi
3.	Ishlab chiqarish omillari	Ekinlarni yetishtirish texnologiyasi, agrotexnik tadbirlar	Hosil sifati va miqdoriga bevosita ta'sir qiladi
4.	Moliyaviy omillar	Korxonaning moliyaviy resurslari, investitsiya imkoniyatlari	Risklarni kamaytirish uchun zarur infratuzilmani yaratish imkoniyati
5.	Sug'urta omili	Sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasi	Favqulodda zararlarni qoplash mexanizmini yaratadi
6.	Risk chastotasi	Risk hodisalarining takrorlanish davri	Risklarni baholash va sug'urta tariflarini aniqlash imkonini beradi
7.	Sug'urta qoplamasi darajasi	Sug'urta qoplamasining 65–70 % optimal darajasi	Ishlab chiqaruvchilar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi

*Muallif ishlanmasi

Faqat ba'zi ekinlarni o'stirish mumkin bo'lgan yerdan ko'ra, turli ekinlar ekib foydalanish mumkin bo'lgan yer uchastkasi har doim ko'pchilikning xohishiga mos keladigan joy bo'lib kelgan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning multifunksionalligi uni turli bozorlarda sotish va undan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish mumkinligi bilan ham qulay hisoblanadi. Masalan, kartoshkani spirt ishlab chiqarishga mo'ljallab savdo va oziq-ovqatni qayta ishlovchi korxonalariga sotish yoki xo'jalikning o'zida qoramollar emi uchun ishlatish mumkin. Sanoatda qayta ishlagan mo'ljallangan bug'doyni agar ichki bozorda ortiqcha bo'lsa tashqi bozorda sotish mumkin.

Tabiiy xedjerlash hosil va ishlab chiqarish narxi o'rtasida salbiy korrelyatsiya bo'lganda yuz beradi. Bu korxonalar daromadlariga barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi, chunki fermer xo'jaliklari

hosildorlikning pasayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni yuqori narxlar hisobiga kamaytirishi mumkin.

Masalan, o'tish davri iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda bunday holatlarning yuzaga kelishi yer munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Ushbu holat qishloq xo'jaligi biznesiga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan investorlar uchun katta xavfni oldindan belgilab beradi. Boshqa bir misol, ekinlarni himoya qilish vositalarining ayrim turlaridan foydalanishga cheklovlar va taqiqlar bo'lishi mumkin, bu esa ekin yetishtirish korxonalarining daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday xatarlar institutsional xatarlar deb nomlanadi. Xavfning yana bir manbai — ayniqsa dehqon xo'jaliklarida — inson omili bilan bog'liq xavf hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi egasining o'limi yoki ajralish kabi oilaviy inqirozlar ham xo'jalikning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi texnikasi va hayvonlar bilan ishlagan bo'lgan beparvolik ham inson omili bilan bog'liq xavf deb tasniflanadi. Ishlab chiqarish, narx, institutsional va inson omili xatarlarining kumulyativ ta'siri biznes tavakkalchiligi umumiy atamasi bilan belgilanadi.

Xulosa (Conclusion, Заключение).

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar natijasida qishloq xo'jaligi risklarini ilmiy asosda tasniflash va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish agrar sohada barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti ekanligi isbotlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yuqori darajadagi risklarga duchor bo'lib, ularning samarali boshqarilishi agrar sohaning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda risklar tabiiy-iqlim, ishlab chiqarish, bozor, moliyaviy, institutsional va inson omillari bo'yicha guruhlangan va ularning kelib chiqish manbalari hamda ta'sir darajasi aniqlangan.

Risklarni baholash va kamaytirishda statistik usullar, sug'urta, diversifikatsiya va moliyaviy mexanizmlardan kompleks foydalanish muhimligi aniqlangan. Shu bilan birga, tizimli va individual risklarni farqlash va boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish agrar ishlab chiqarishda yo'qotishlarni minimallashtirish va daromad barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligida samarali risk boshqaruvi tizimini joriy etish ishlab chiqarishning barqarorligini oshirish, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash va mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorini mustahkamlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/ References):

- Hardaker, J.B., Huirne, R.B.M., Anderson, J.R., & Lien, G. (1997). *Coping with Risk in Agriculture*. Wallingford: CAB International.
- Boehlje, M.D., & Trede, L.D. (1977). *Risk Management in Agriculture*. *American Journal of Agricultural Economics*, 59(5), 941–948.
- Fleisher, B. (1990). *Agricultural Risk Management*. Boulder: Lynne Rienner Publishers.
- Just, R.E., & Pope, R.D. (2003). *Agricultural risk analysis: Adequacy of models, data, and issues*. *American Journal of Agricultural Economics*, 85(5), 1249–1256.
- FAO (2014). *Agricultural Risk Management in Developing Countries*. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
- World Bank (2011). *Weather Index Insurance for Agriculture: Guidance for Development Practitioners*. Washington, DC: The World Bank.
- Just, R. E., & Pope, R. D. (2003). "A Comprehensive Assessment of the Role of Risk in U.S. Agriculture." *Journal of Agricultural Economics*.
- Saidova D. N. Main Risks and Factors of Food Security in Uzbekistan. // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2022. – Vol. 3, No. 6.
- Otabekov Sh. X., Xalikov B. Sh., Unaboyev Sh. Sh. Qishloq xo'jaligidagi risklarni sug'urtalashning dolzarb masalalari haqida. – *Zenodo*, 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.15231540.
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi; BMT Taraqqiyot Dasturi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy tahlil markazi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash tizimining tahlili. – *Nukus: BMTTD*, 2024. – 86 b.